

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV INOMJON NORALIYEVICH

**METOMORFIK QATLAMLI TUPROQLAR VA O‘SIMLIKLARNING
BIOGEOKIMYOVIY, MELIORATIV XOSSALARIGA ANTROPOGEN
OMILLARNING TA‘SIRI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2024

UO‘T. 631.4.:631.5

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciences**

Мамажонов Иномжон Норалиевич

Metomorfik qatlamli tuproqlar va o‘simliklarning biogeokimyoviy, meliorativ xossalarga antropogen omillarning ta’siri.....3

Мамажонов Иномжон Норалиевич

Влияние антропогенных факторов на биогеохимические и мелиоративные свойства почв с метаморфическими горизонтами и растений.....21

Мамажонов Иномжон Норалиевич

The influence of anthropogenic factors on the biogeochemical and reclamation properties of soils with metamorphic horizons and plants.....40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV INOMJON NORALIYEVICH

**METOMORFIK QATLAMLI TUPROQLAR VA O‘SIMLIKLARNING
BIOGEOKIMYOVIY, MELIORATIV XOSSALARIGA ANTROPOGEN
OMILLARNING TA‘SIRI**

03.00.13-Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/B1222 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashning veb-sahifasida: (www.....) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev G'ulom

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Jabbarov Zafarjon Abdukarimovich

biologiya fanlari doktori, professor

Qalandarov Nazimxon Nazirovich

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2024 - yil «26» 10 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy). Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (392 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 - yil «09» 10 kuni tarqatildi.
(2024 - yil «09» 10 daqi № 3 -raqamli reyestr bayonnomasi)



V.Y. Isakov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash majlisi raisi, b.f.d., professor

U.B. Mirzayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

A.T. Turdaliev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi va cho'llanish, tuproq qoplamiga antropogen bosim kuchayishi sharoitida sug'oriladigan yerlarning o'sish sur'atlari pasayishi kuzatilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, "2000-yildan 2019-yilgacha qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlari 4 %, ya'ni 63 million gektarga oshgan, qishloq xo'jaligi yerlarining 34 % antropogen degradatsiyaga uchragan, jami sug'oriladigan yerlarning 161 million gektarga oshgan, yoki 48 % idegradatsiya xavfi ostidadir¹". FAO ma'lumotlariga ko'ra, sho'rlangan tuproqlar butun dunyo yuzasining deyarli 25 % egallaydi². Shu bois, sho'rlangan, metamorfik qatlarga ega bo'lgan tuproqlarning monitoringi tafsilotining yangi biogeokimyoviy usullarini izlab topish va joriy etish dolzarb muammolar qatorida turadi.

Dunyoda sho'rlangan, arzik-shoxli tuproqlarning hozirgi holati va ularning dehqonchilik ta'sirida o'zgarishini o'rganish, morfologik tuzilishini aniqlash, unumdorligini oshirish va baholash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda keng miqyosda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bug'doy va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun maxsus agrotexnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish sohasida agrokimyoviy xizmat ko'rsatish va monitoring ishlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tuproqlarning genetik holatiga biogeokimyoviy xossalari hamda unumdorligiga, suv va yer resurslarini tejaydigan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda mavjud cho'l mintaqa sug'oriladigan tuproqlarining fizik-kimyoviy, ekologik-meliorativ va geokimyoviy holatlarini aniqlash, sho'rlanish, eroziya hamda degumifikatsiya kabi salbiy jarayonlarning oldini olish hamda arzikli, gipsli qatlamlarga ega bo'lgan, sho'rlangan tuproqlarning unumdorligini oshirish, muhofaza qilish va samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu sohada muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasining "...tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish" bandi bo'yicha muhim vazifalar berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, Markaziy Farg'onadagi metamorfik qatlamlarga ega bo'lgan ko'l-allyuvial tekisliklarda hosil bo'lgan sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati, biogeokimyoviy, agrokimyoviy xossalari, degradatsiya jarayonlarini, unumdorligini aniqlash, bug'doydan yuqori hosil olish, sug'orish suvini tejash va metamorfik qatlamli tuproqlardan samarali foydalanish agrotexnologiyasini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5863-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 17-iyundagi

¹ fao.org/3/cb0890ru/cb0890ru.pdf

² <https://unccleran.org/wp-content/uploads/library/cb7654ru.pdf>

PF-5742-sonli “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³ Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V.“Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘oriladigan tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy, fizik-kimyoviy, geokimyoviy xossalarini o‘rganish asosida ekologik-meliorativ va agrokimyoviy, biogeokimyoviy holatini yaxshilash bo‘yicha ilmiy izlanishlar V.A.Kovda, A.I.Perelman, M.A.Glazovskaya, V.V.Dobrovolskiy, A.N.Rozanov, V.V.Yermakov, G.V.Motuzova, O.S.Bezuglova, D.S.Orlov, I.M.Yashin, I.I.Vasenev, A.Ahmad, M.Afzal, R.Garrison Spozito, Kabata-Pendias, Arnold, I.Hinrich va boshqalar, shuningdek, respublikamiz olimlaridan: A.M.Rasulov, A.Z.Genusov, B.V.Gorbunov, N.V.Kimberg, R.K.Qo‘ziyev, L.A.G‘afurova, M.M.Toshqo‘ziyev, J.S.Sattorov, N.Y.Abduraxmonov, N.B.Raupova, N.I.Shodiyeva, A.M.Maksudov, S.A.Abdullayev, K.M.Mirzajonov, V.Y.Isoqov, R.Kurvontayev, Z.A.Jabbarov, S.X.Zokirova, G.T.Parpiyev, G.Yuldashev, M.T.Isag‘aliyev, A.T.Turdaliyev, U.B.Mirzayev, D.M.Xoldarov, X.Abduxakimova, A.Ismanov, G.T.Sotiboldiyeva, D.Y.Darmonov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Biroq Markaziy Farg‘onaning ko‘l-allyuvial tekisliklarida hosil bo‘lgan metamorfik gorizontlarga ega sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarining genetik, tuproq-meliorativ, tuproq-geokimyoviy va biogeokimyoviy xossalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universitetining FSX-7-011 “Farg‘ona vodiysida tuproq unumdorligi muammolari va uni oshirish yo‘llari” (2018-2023 yy) ilmiy tadqiqot rejasi, fundamental va amaliy loyihalari doirasida hamda “Farg‘ona vodiysi tuproqlari geokimyosining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish” (2018-2028 yy) mavzusidagi xalqaro shartnomalar asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Farg‘onaning ko‘l-allyuvial tekisliklarida har xil darajada buzilgan metamorfik qatlamli tuproqlar va o‘simliklarning biogeokimyoviy, meliorativ xossalariga antropogen omillarning ta‘sirini aniqlash ushbu tuproqlardan foydalanish agrotexnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: ko‘l-allyuvial tekisliklarda hosil bo‘lgan metamorfik gorizontlarga ega gidromorf tuproqlarning morfologik xususiyatlarini va transformatsiyasini aniqlash;

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5863-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi” Farmoni

metomorfik gorizontli tuproqlarning fizik-kimyoviy va agrokimyoviy xossalari, energetik va tuproq-meliorativ holatini, tuzlarning mavsumiy akkumulyatsiyasiga asoslangan yangi formatdagi shoʻrlanish xaritanomasini tuzish va KK tasnifi boʻyicha takliflar ishlab chiqish;

tuproq klarki, konsentratsiya klarki, tarqalishi Fe, Al, Si, Na, Mg, K, Ca, Sr, Ba, Cr, Zn, Mn, Mo, B, Co, Ni, As, Cd, Sb, Hf lar uchun aniqlash hamda yangi formatdagi tuproq-geokimyoviy xaritalarini yaratish;

texnogen yoki tabiiy manbalar bilan genetik jihatdan bogʻlangan oʻtloqi saz tuproqlari elementar geokimyoviy landshaftlardagi biokimyoviy anomaliyalar va pedogeokimyoviy toʻsiqlarni aniqlash, shuningdek, bugʻdoyni ushbu holatdagi biogeokimyosi va reaksiyasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Fargʻona viloyati Yozyovon tumanining koʻl-allyuvial tekisliklarida shakllangan metomorfik gorizontlarga ega boʻlgan, shoʻrlangan gidromorf tuproqlar hamda tekislangan qumlar va “Yuka” navli bugʻdoy oʻsimligi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti metomorfik gorizontli tuproqlarning agrobiogeokimyoviy xossalari va ularning antropogen omillar taʼsirida oʻzgarishi, shuningdek, choʻllanish jarayonlari, tuzlarni mavsumiy akkumulyatsiyasini geokimyoviy xaritalash, pedogeokimyoviy baryerlar, siklik kimyoviy elementlarning oʻsimliklar tomonidan singdirilish holati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tuproqshunoslikda qabul etilgan standart metodlar asosida dala va laboratoriya tadqiqotlari olib borildi: bunda genetik, tuproq-geografik, kimyoviy-analitik, kartografik usullar qoʻllanilgan. Xaritalarni tuzishda “Davlat yer kadastrini yuritish boʻyicha tuproq tadqiqotlarini oʻtkazish va tuproq xaritalarini tuzish boʻyicha yoʻriqnoma”dan, V.V.Dokuchayevning morfologik, dala-statsionar, profil usullari, laboratoriya tahlillari: suvda eruvchi tuzlar suvli soʻrim usulida, gumus I.V.Tyurin usulida, yalpi azot, fosfor, kaliy Malseva, Gritsenko, singdirilgan kationlar Pfeffer usulida, pedogeokimyoviy tadqiqotlar Polinov, Perelman, Glazovskayalarning landshft-geokimyoviy yondashuv usulida, makro va mikroelementlar neytron-aktivatsion usulda aniqlangan. Si, Al, Fe lar Optical Emission spektroskopiya usulida aniqlandi. Matematik-statistik tahlil dispersion (Sh.Karimov, Gʻ.Yuldashev va V.Samsonov) usulda Microsoft Excel dasturlariga tayangan holda ishlangan hamda matematik va statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

choʻl mintaqasining koʻl-allyuvial tekisligida yengil mexanik tarkibli oʻtloqi saz tuproqlarining profilida, gumussiz qatlamida, yuzadan 20-30 sm chuqurda tuproqlarning shakllanishi jarayonida oʻziga xos xususiyatli metomorfik qatlamlarning shakllanishi aniqlangan;

koʻl-allyuvial onalik jinslar ustida shakllangan sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlarining metomorfik qatlamlarini buzilishi, ularning umumfizikaviy, kimyoviy, agrokimyoviy, biogeokimyoviy, energetik xususiyatlarini va unumdorligini oʻzgarishiga olib kelishi isbotlangan;

tuzlarning mavsumiy akkumulyatsiyasiga asoslangan yangi formatdagi tuproq xaritasi tuzilgan;

o'rganilgan tuproqlar, onalik jinslari metamorfik qatlamlarida siklik elementlar Klarki, konsentratsiya Klarki, radial migratsiya koeffitsiyenti, migratsiya impulsi, geokimyoviy spektrlari aniqlandi va yangi formatdagi tuproq geokimyoviy xaritasi tuzilgan;

siklik kimyoviy elementlar manbasi bilan genetik aloqadorlikda bo'lmagan sug'oriladigan metamorfik qatlamlarga ega bo'lgan o'tloqi saz tuproqlarida biogeokimyoviy anomaliya, pedogeokimyoviy baryerlar aniqlanganligi bilan birga, ushbu sharoitdagi bug'doyning biogeokimyoviy xususiyatlari va unga javoban reaksiyasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan metamorfik qatlamli va boshqa tuproqlar uchun tuzlarni mavsumiy akkumulyatsiyasi asosida hamda rux elementining anomalligi bo'yicha yangi formatdagi 1:10 000 masshtabli xaritanomalar tuzildi, ushbu xaritanomalar asosida tuproqlarning sho'rini samarali yuvish va unumdorligini saqlash, qayta tiklanish tadbirlarini o'tkazish tavsiyalari ishlab chiqilgan;

dala tajribalari natijasiga asosan sug'oriladigan, sho'rlangan, metamorfik qatlamlari tuproq yuzasidan 20-30 sm chuqurlikda joylashgan tuproqlardan foydalanish va cho'l sharoitida bunday holatlarda bug'doy hosildorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tuproqlarni dala, kameral va laboratoriya sharoitida zamonaviy tuproqshunoslikda qabul qilingan usullardan foydalanilganligi, rasmiy hujjatlardan ayrim nazariy-amaliy ma'lumotlardan foydalanib, variatsion-statistik qayta ishlanganligi, ishlab-chiqarishga joriy qilinganligi, xalqaro va respublika miqyosida Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati cho'l mintaqasidagi sug'oriladigan, yuzadan uncha chuqur bo'lmagan metamorfik qatlamli, ko'l-allyuvial onalik jinslar ustida shakllangan tuproqlarning o'ziga xos shakllanishi, agrokimyoviy, pedobiogeokimyoviy xossalari va energetik, tuproq-meliorativ holatini ulardagi siklik elementlar uchun fon miqdorlarini tuproqda, metamorfik qatlamda, onalik jinslarida va bug'doyda aniqlanganligi, bug'doy hosildorligiga metamorfik qatlamning ta'sirini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlar uchun tuzilgan yangi formatdagi tuproqlarning mavsumiy sho'rlanishini va rux elementining anomalligini ko'rsatuvchi xaritalar tuzilganligi, siklik elementlarning konsentratsiya Klarki, Klark taqsimoti, fon miqdorlari va metamorfik qatlamli o'tloqi saz tuproqlarda bug'doy hosildorligini oshirish yo'llarining ishlab chiqilganligi, olingan natijalardan meliorativ va monitoring maqsadlarda foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishda, sug'orish vaqtida suvni tejashda, qishloq xo'jaligida foydalanishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Antropogen omillarning metamorfik qatlamli tuproqlarning meliorativ holati, biogeokimyoviy xossalari hamda o'simliklarga ta'siri va tuproq holatini yaxshilashga qaratilgan, olingan ilmiy-amaliy natijalari asosida:

Yangi formatdagi, ya'ni tuzlarni tuproqdagi mavsumiy akkumulyatsiyasini, rux elementining anomallik darajasini ko'rsatuvchi tuproq xaritalari va ular uchun tuzilgan atributiv ma'lumotlar banki Farg'ona viloyati Yozyovon tumani xo'jaliklarida foydalanishga kiritilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024- yil 3-iyuldagi 05/06-02-494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Yozyovon tumani sug'oriladigan, sho'rlangan metamorfik qatlamga ega bo'lgan o'tloqi saz tuproqlar va qum barxanlarining biogeokimyoviy xususiyatlariga ko'ra ularning meliorativ xossalarini yaxshilash imkonini bergan;

Yozyovon tumanidagi "Mukarram opa" fermer xo'jaligining 9,5 gektar maydonidagi ko'l-allyuvial yotqiziqli onalik jinsi ustida shakllangan sug'oriladigan, metamorfik qatlamli tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyasi Farg'ona viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan. (Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 3-iyuldagi 05/06-02-494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'rganilgan tuproqlarni yaxshilash hisobiga 60,4 s/gacha don hosili, ya'ni 30 s/ga gacha qo'shimcha hosil olish imkonini bergan;

Yozyovon tumani hududidagi fermer xo'jaligi yerlaridagi 50 gektar boshoqli don ekini ekilgan maydonda yiliga 2 marotabadan o'rtacha minerallashgan kollektor-zovur suvi bilan sug'orish usuli "Yangi Bo'ston marvaridi" fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 3-iyuldagi № 05/06-02-494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sug'orish hisobiga har yili o'rtacha 1600 m³ /ga dan toza suv tejalishiga va shu miqdordagi minerallashgan suvlarni kollektorlar orqali daryoga tushishining oldini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta konferensiya, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 tasi xorijiy 4 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, 4 bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligi asoslanadi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va usullari, predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi; Olingan natijalarning ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishni, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot beriladi.

Dissertatsiyaning “**Sho‘rlangan tuproqlarning o‘rganilishi tarixi**” deb nomlangan birinchi bobi tadqiqotlar maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ikki paragrafga bo‘lingan “Markaziy Farg‘ona tuproq qoplaminin o‘rganilishi” va “Tuproqlari va landshaftlarini pedogeokimyoviy o‘rganilish tarixi” deb nomlangan.

Bob to‘laligicha adabiyotlar tahliliga, ya’ni Markaziy Farg‘ona va dunyoning sho‘rlangan tuproqlari qoplami hamda geokimyoviy, elementar landshaftlarini mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilganlik darajasiga bag‘ishlangan.

Bobda Markaziy Farg‘ona cho‘kmasi shakllangan hududda har xil tabiatga, ya’ni xususiyatlarga ega bo‘lgan gidromorf tuproqlar, qum barxanlari, tekislangan qumliklarni denudatsiyalanishi hisobiga va antropogen omillar ta’sirida har xil darajada transformatsiyalanishi keltirilgan.

Jumladan, qumliklar ostiga ko‘milgan tuproqlar ham mavjudlikka alohida e’tibor qaratilgan.

Arid iqlim mintaqasida cho‘l sharoitida har xil tip va tipchalardagi sho‘rlangan, gipslashgan, arzik shoxli qatlamlarga ega bo‘lgan tuproqlarni shakllanishi, ba’zi xossalari keltirilgan.

Hududni geologiyasi, geografiyasi, tuproqlari A.F.Middendorf, V.R.Nalivkin, S.S.Neustruyev, M.A.Pankov, V.Y.Isakov, A.M.Maksudov, A.M.Rasulov, V.Fedorov, K.M.Mirzajonov, S.Zakirova va boshqalar tomonidan o‘rganilganligi e’tirof etilgan. Vodiya tuproq paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga N.Y.Abduraxmonov, A.Ismanov, N.Qalandarov, O‘.Sobitov, Z.A.Jabborov, M.T.Isag‘aliyev, A.T.Turdaliyev va boshqalar yangicha zamonaviy yondashib, hozirgi holatiga alohida e’tibor berganlari keltirilgan.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi amaliyotida kimyoviy elementlarning tuproqda, tuproq-o‘simlik zanjirida, sizot suvlarida, tuproq-atmosfera zanjiridagi migratsiyasi va akkumulyatsiyasi, differentsiatsiyasi hamda maxsus baryerlarda ushlanib qolishi katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etilishi olimlarning ishlari asosida yoritilgan.

Kimyoviy elementlarni migratsiya va akkumulyatsiyasini hamda boshqa xususiyatlarini o‘rganishda ushbu elementlarning tasnifini e’tirof etib, ushbu bobda V.I.Vernadskiy, A.I.Perelman ishlab chiqqan qulay tasniflariga alohida e’tibor qaratib, cho‘l mintaqasida, xususan, Markaziy Farg‘onaning ko‘l-allyuvial yotqiziqlari ustida shakllangan sug‘oriladigan metomorfik qatlamga ega bo‘lgan o‘tloqi saz tuproqlarni hozirgi zamon agrofizikaviy, agrokimyoviy, biogeokimyoviy xossalari va unumdorligini oshirish, bug‘doydan yuqori hosil olish yo‘llari yetarli darajada o‘rganilmaganligi to‘g‘risida xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning “**Sho‘rlangan va metomorfik qatlamga ega bo‘lgan tuproqlarni paydo qiluvchi omillar**” deb nomlangan ikkinchi bobida Markaziy Farg‘onaning geografik o‘rni, qum dahalari, gidromorf tuproqlari, sho‘rxoklari va boshqalarning geografik o‘rni, geologik va litologik, geomorfologik, gidrogeologik va transformatsiyasida antropogen roli, bevosita Yozyovon tumani tarixi o‘rni, chegaralari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi cho‘llanish jarayon butun dunyoni qamrab olgan, bu holat Farg‘ona vodiysini ham chetlab o‘tman.

Tuproqni shakllantiruvchi omillardan biri iqlim bo'ladigan bo'lsa, bu boradagi 2014-2018-yillar mobaynida Qo'qon meteorologik stansiya ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha yillik harorat 15,3°C ni tashkil qilgan taqdirda 2019-2023-yillarda 15,9°C ni, ya'ni 0,6°C o'rtacha haroratni oshganligini ko'ramiz.

Bu katta ko'rsatkich bo'lib, cho'l mintaqasida cho'llanish yana ham kuchaymoqda. Yana ham chuqurroq kuzatilsa, alohida holatlarda havo haroratining cho'l mintaqasidagi miqdori oldingi 5 yillikdan keyingi 5 yillikka 2,2°C ga oshgan, minimal harorat esa 2°C ga kamaygan.

Yuqoridagilarga muvofiq ravishda tuproq sirti haroratida va yog'ingarchilikda ham o'zgarishlar sodir bo'lganligi dissertatsiyada yoritilgan. Besh yilliklarda tuproq yuzasi harorati maksimal ko'rsatkichlarda 6,2°C o'rtacha ko'tarilgan, minimal ko'rsatkichlar esa kamaygan.

Yog'in miqdori esa bu davrda 11,2 mm ga kamaygan. Keltirilgan ma'lumotlarni cho'l hududiga tegishli ekanligini ishda yana bir bor eslatib o'tilgan.

Hududning geologiya, gidrogeologiya, gidrologiyasi Markaziy Farg'ona cho'kmasiga xos ekanligi e'tirof etilgan.

Buni tavsiflash uchun O.K.Lange fikricha, e'tibor qaratishga to'g'ri keladi, ya'ni cho'kma adirlar zanjiri bilan o'ralgan. Yotqiziqlari asosan Neogen va to'rtlamchi davr boshlariga to'g'ri keladi, tog' jinslari, yaralmalari quruq kontinental tipga to'g'ri keladi, ba'zan ko'l va subaeral fatsiyaga mos keladi. Yotqiziqlarni aralashib ketganligini ham ko'rish mumkin.

Markaziy Farg'onada har xil omillar ta'sirida qum, shag'al, loy va lyossimon jinslardan iborat bo'lgan prolyuvial-allyuvial jinslar, shamol yotqiziqlari, ya'ni harakatchan qumlar, qum-tepalar va barxanlar vujudga kelgan. M.A.Pankov ishlari asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, tadqiqot obyekti to'qqizinchi gidrogeologik rayonga kiradi.

Gidrogeologik, relyef va boshqa sharoitlar ta'sirida Markaziy Farg'onada har xil tuproqlar shakllangan. Zamonaviy tuproq xaritasi ma'lumotlariga ko'ra suv yuzalari, qoya toshlar va ochilib kelgan tub jinslar, qum va shag'alli yotqiziqlardan tashqari yettita tuproq guruhi shakllangan.

Lekin ular ichida ko'l-allyuvial yotqiziqlar ustida, ko'l-allyuvial tekisliklarda, cho'l sharoitida metamorfik qatlamga ega bo'lgan tuproqlar guruhi yo'q, ya'ni kiritilmagan, shu bois tuproqshunoslikka oid bo'lgan tadqiqotlar usulidan foydalangan holda o'rganildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi 2 ta paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragrafda tadqiqot obyekti, ikkinchisida tadqiqotlar usuli yoritilgan. Tadqiqotlar maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, Farg'ona viloyatining Yozyovon tumani yerlarida metamorfik qatlamga ega bo'lgan tuproqlarni aniqlash va tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida, 2020-yilning avgust-sentabr oylarida 19603 ga maydonda maxsus ekspeditsiya tashkillab, o'rganilib chiqildi.

Natijada Yozyovon tumanining "Mukarram opa" nomli fermer xo'jaligida 9,5 ga maydonda metamorfik qatlamga ega bo'lgan tuproqlar aniqlandi va dala tadqiqotlari V.V.Dokuchayevning morfogenetik hamda solishtirma-geografik

usullari asosida tuman shoʻrlangan tuproqlari hamda metamorfik qatlamga ega boʻlgan maydonlarni tuproq xaritasi tuzish ishlari boshlandi.

Dala va kameral ishlar “Yer monitoringini yuritish” usuli asosida, solishtirma-geokimyoviy, landshaft-geokimyoviy usullardan, yaʼni Polinov, Perelman, Gldazovskayalar maxsus yoʻriqnomalaridan foydalangan holda kirishildi.

Bundan tashqari Oʻzgidrometeorologiya markazi, viloyat gidrogeologik ekspeditsiyasi, Oʻzgirozem maʼlumotlari va adabiyotlardan tegishli tartibda foydalanildi. “Mukarram opa” fermer xoʻjaligi hududida Oʻzbekiston Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti uslubiyotlariga koʻra uch variantli, har bir varianti 0,5 ga mydonda tadqiqotlar oʻtkazildi.

I-variant nazorat, metamorfik qatlam buzilmagan, tabiiy holat, 1-kesma.

II-variant metamorfik qatlam maxsus rixlitel bilan buzilgan, 2-kesma.

III-variant metamorfik qatlam buzilgan va hosil boʻlgan yuzasi 5-10 sm² li boʻlaklar dala maydonidan chiqarib tashlangan 3-kesma.

Ushbu dala maydonida har yil qish oylarida yengil shoʻr yuvish ishlari, yani ariqlardan suv oqizish yoʻli bilan 1200 m³/ga meʼyorda amalga oshirgan, ungacha, yaʼni shoʻr yuvishgacha sentabr oxiri oktabr boshida bugʻdoyning Yuka navi ekilgan.

Bugʻdoyni parvarishlash fermer xoʻjaligida qabul qilingan agrotexnologiya va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash esa “Методика экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ новой техники, изобретений и рационализаторских предложений” qoʻllanmasi asosida olib borildi.

Tuproq, oʻsimlik, sizot suv namunalarini laboratoriya tahlillari Y.V.Arinushkinaning “Руководство по химическому анализу почв” va boshqa tuproqshunoslikda qabul qilingan standart usullar boʻyicha, siklik kimyoviy elementlar neytron-aktivatsion usulda aniqlandi. Olingan maʼlumotlarni matematik-statistik tahlili “Microsoft Excel” dasturi yordamida dispersion usulda hisoblandi.

Dissertatsiyaning **“Gidromorf tuproqlarning agromeliorativ va pedobiogeokimyoviy xossalari”** deb nomlangan IV bobi 14 paragrafdan iborat boʻlib, uning birinchi paragrafi morfologik xususiyatlari deb nomlanadi, unda Kovda, Rozanov fikriga koʻra, tuproq kesmasining tuzilishi 5 tipga boʻlinishi, hatto har bir tip yana akkumulyativ, ellyuvial, illyuvial-ellyuvial va boshqalarga boʻlinishi keltirilgan.

Shu bilan birga, Yozyovon tumanidagi tekislangan barخانlar, yaʼni har xil qalinlikda yotqizilgan qumlar, yaʼni hozirda bugʻdoy boshqa ekin turlari ekilgan qum-tuproqlar, oʻtloqi allyuvial, oʻtloqi saz tuproqlarni morfologiyasi keltirilgan.

Bu jarayonda 100-120 sm qalinlikdagi qumlar tagida har xil darajada shoʻrlangan gidromorf tuproqli ekinlarni ham, yaʼni koʻmilgan tuproqlarni ham koʻrish mumkinligi keltirilgan.

Bu oʻrinda 20-33, 33-59 sm larda joylashgan metamorfik qatlamli sugʻoriladigan koʻl-allyuvial yotqiziqalar ustida shakllangan tuproq kesmasi alohida ahamiyatli, shu bois rasmlari keltirilgan.



1-rasm. 1-kasma



2-rasm. 3-kasma

Rasmlarda, ya'ni 1-kesmada metamorfik qatlam yaqqol ajralib turgan bo'lsa, 3-kesmada bu holat ko'rinmaydi, lekin sekinlik bilan metamorfik qatlamni tiklanayotganligini ko'rish mumkin.

O'rganishga tortilgan, ya'ni sug'oriladigan va har xil darajada metamorfik qatlamlari buzilgan sug'oriladigan o'tloqi saz hamda qumli tuproqlarni mexanik tarkibiga kelsak, ular yengil va qumoq tuproqlarni mexanik tarkibiga ega, ya'ni fizik loyqa 18,1-30 % atrofida tebranadi.

1-jadval

Tuproq fizik xossalariining o'zgarishi

| Variantning nomi | Kesma t/r | Chuqurligi, sm | Massa, g/sm ³ | | G'ovaklik, % |
|---|-----------|----------------|--------------------------|-------------|--------------|
| | | | Hajm | Solishtirma | |
| I-Nazorat, metamorfik qatlam buzilmagan | Kesma-1 | 0-20 | 1,38 | 2,54 | 45,7 |
| | | 20-47 | 2,01 | 2,78 | 27,7 |
| | | 47-71 | 1,58 | 2,60 | 39,2 |
| | | 71-112 | 1,54 | 2,63 | 41,4 |
| | | 112-120 | 1,56 | 2,65 | 41,1 |
| II-Metomorfik qatlam maxsus yumshatgich yordamida buzilgan | Kesma-2 | 0-20 | 1,36 | 2,56 | 46,1 |
| | | 20-45 | 1,72 | 2,68 | 35,6 |
| | | 45-71 | 1,53 | 2,62 | 39,3 |
| | | 71-112 | 1,58 | 2,60 | 39,2 |
| | | 112-120 | 1,59 | 2,64 | 39,8 |
| III-metomorfik qatlam buzilgan, maydondan chiqarib yuborilgan | Kesma-3 | 0-33 | 1,34 | 2,52 | 46,8 |
| | | 33-59 | 1,54 | 2,66 | 42,1 |
| | | 59-71 | 1,55 | 2,62 | 40,8 |
| | | 71-112 | 1,56 | 2,64 | 40,9 |
| | | 112-120 | 1,58 | 2,66 | 40,6 |

Lekin metamorfik qatlam buzilgan va terib tanlangan maydonlarda bevosita metamorfik qatlamda mexanik tarkibni sekinlik bilan og'irlashib borishi kuzatiladi.

Mexanik tarkib bilan birga hajm va solishtirma massalarda o'zgarish sodir bo'ladi. O'rganilgan tuproqlarda ularning fizik xossalari metamorfik qatlam holatiga qarab o'zgaradi (1-jadval), ya'ni yaxshilanib boradi. Tuproqni fizik xossalari bilan uning agrokimyoviy xossalari o'zaro bog'langan, ya'ni metamorfik qatlami faqat buzilgan kesma tuproqlariga to'g'ri kelib, 0,88 % ni tashkil qildi 1, ya'ni nazorat 3, metamorfik qatlam buzilgan va daladan chiqarilgan variantlarda bu kattalik 0,22 % ga ortiq.

Umumiy holatda gumus miqdori 1,10-0,21 % orasida tebranadi. Gumus miqdoriga mos ravishda yalpi azot, fosfor, kaliylarning miqdori o'zgargan, ya'ni 3-variantda biroz ko'paygan. Shunga yaqin holatlar harakatchan N, P₂O₅, K₂O larda va gumus energiyasida kuzatiladi. O'rganilgan tuproqlarda miqdori uglerodni organik uglerodli nisbati 3,5-36,92-ni tashkil qiladi. 2-jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, organik uglerod miqdori juda kam 1% ga ham yetmaydi, ammo mineral uglerod miqdori umumiy uglerodga nisbatan 77-95% ni tashkil qiladi.

2-jadval

Pedolitogen uglerodning o'zgarishi


| Kesma t/r | Chuqurligi, sm | Uglerod | | | C _{organik} . meros | C _{mineral} . Jamiga nisbatan, % | $\frac{C_{mineral}}{C_{organik}}$ |
|--------------|-------------------|---------|---------|------|---------------------------------|---|-----------------------------------|
| | | Organik | Mineral | Jami | | | |
| 1 | 0-20 | 0,64 | 2,24 | 2,88 | 18,75 | 77,78 | 3,5 |
| | 20-47 | 0,19 | 5,34 | 5,53 | 63,16 | 96,56 | 28,10 |
| | 47-71 | 0,24 | 2,97 | 3,21 | 50,0 | 92,52 | 12,37 |
| | 71-112 | 0,17 | 2,12 | 2,29 | 70,58 | 92,58 | 12,47 |
| | 112-120 | 0,12 | 2,46 | 2,58 | 100 | 95,35 | 20,50 |
| 2 | 0-20 | 0,51 | 2,29 | 2,80 | 25,5 | 81,78 | 4,49 |
| | 20-45 | 0,13 | 4,80 | 4,91 | 100 | 97,75 | 36,92 |
| | 45-71 | 0,20 | 2,18 | 2,38 | 65,0 | 91,60 | 10,90 |
| | 71-112 | 0,21 | 2,15 | 2,36 | 62,0 | 91,10 | 10,24 |
| | 112-120 | 0,13 | 2,43 | 2,56 | 100 | 94,92 | 18,69 |
| 3 | 0-33 | 0,64 | 2,14 | 2,78 | 20,9 | 76,98 | 3,34 |
| | 33-59 | 0,19 | 2,92 | 3,11 | 68,4 | 93,89 | 15,37 |
| | 59-71 | 0,24 | 2,33 | 2,57 | 54,2 | 90,66 | 9,71 |
| | 71-112 | 0,19 | 2,19 | 2,38 | 68,4 | 92,02 | 11,53 |
| | 112-120 | 0,13 | 2,43 | 2,56 | 100 | 94,92 | 18,62 |

Ustki, ya'ni haydov qatlamlaridagi organik uglerod bilan pedolitogen matamorfik qatlamdagi va keyingi gorizontlardagi organik uglerod farqi ustki qatlamlarda shakllangan labil gumus hamda nurashlar jarayonida hosil bo'lgan amorf temir gidroksidi va alyuminiy, kremniyli allofanlarning yuqori sorbsion qobiliyati hamda gumus bilan hosil qilgan organo-mineral, ya'ni mineralizatsiyaga turg'un bo'lgan organo-mineral koplekslari bilan bog'liq.

Tuproqning ustki qatlamlaridagi yuza-tuproq pedolitogenezi bevosita ustki qatlamga keluvchi alloxtan va yeol materiallar, deflyatsiya, allyuvial, dellyuvial yotqiziqlar va ularning kelishi bilan mavjud oldin hosil bo'lgan tuproqni yopilishi bilan bog'liq kechadi. Singdirilgan kationlar miqdoriga kelsak, ularning summasi

kichik, ya'ni 4,80-7,65 mg/ekv. 100 g tuproq uchun kattaliklar orasida tebranadi va asosan Ca>Mg>Na>K ko'rinishni oladi. Singdirilgan Na miqdori o'rganilgan tuproqlarning haydov qatlamlarida summaga nisbatan 4,35-5,82% ni tashkil qiladi va sho'rtoblanmagan guruhga kiradi. Tuproqdagi tuzlar zaxirasiga kelsak, ular variantlar bo'yicha quyidagi rasmda ifodalangan.


Unga ko'ra eng kam tuz miqdori III variantda to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi, qoldiq tuzlar miqdori 30,43% bo'lishi, ya'ni boshqalarga nisbatan keskin kamligi bu tuproqdagi zaharsiz va zaharli tuzlarni boshqa variantlardan kamligi va nisbatan yaxshi yuvilishi bilan izohlanadi.



3-rasm. Tadqiqot maydonchalarida tuzlar dinamikasi, %

Tuzlarning fon miqdori orqali akkumulyatsiya koeffitsiyenti e'tiborga olgan holda Yozyovon tumani dahalari uchun tuzilgan uch yillik (2020, 2021, 2022-yillar uchun) olingan natijalar asosida tuzilgan atributiv ma'lumotli xaritanoma quyidagi ko'rinishda.


Xaritanomani afzalliklari tuproqdagi tuzlarning fon miqdorini 0,3% olinishi va qaysi dahada akkumulyatsiya jarayoni nisbatan yuqori ekanligini bilib, shunga mos harakat, yani o'simlik turini tanlash, sho'rini yuvishga o'ziga xos tayyorgarlik ko'rishdan iborat.




4-rasm. Tuproqlarini sho'rlanganlik holatini akkumulyatsiya koeffitsiyenti orqali ifodalash

Bevosita tajriba maydonlari tuproqlarida, xususan, metamorfik qatlam buzilgan maydonlarda akkumulyatsiya kuchsiz ketishi ko‘rsatilgan.


Navbatdagi paragrafda “**Tuproqlarda siklik makro va mikroelementlar koefitsiyentlarining o‘zgarishi**” makroelementlarning Klark konsentratsiya (kk) larining tadqiqot variantlarining metamorfik va buzilgan qatlamlardagi geokimyoviy spektri quyidagi ko‘rinishga ega.



5-rasm. Makroelementlarning Klark konsentratsiya spektri (K-1)



6-rasm. Makroelementlarning Klark konsentratsiya spektri (K-2)



7-rasm. Makroelementlarning Klark konsentratsiya spektri (K-3)

Unga ko‘ra makroelementlarning boshqa, ya‘ni haydov qatlami, hatto onalik jinslari qatlamidan ham metamorfik qatlamlarda yuqori ekanligi ko‘rinib turibdi. Bu holat 1 va 2 kesmalarda (K-1, K-2) yaqqol ajralib turibdi. Ushbu elementlarning Klark taqsimotida katta o‘zgarishlar kuzatilmadi, shu bois 2 kesmaning 20-45 sm uchun KT lar quyidagi ko‘rinishda ekanligi e‘tirof etiladi.

$$\frac{Na}{2,43} > \frac{K}{1,81} > \frac{Mg}{1,55} > \frac{Fe}{1,35} > \frac{Al}{0,97} > \frac{Si}{0,84} > \frac{Ca}{0,80}$$

Mikroelementlarning Klark konsentratsiyasi va taqsimoti. Ushbu elementlarning KK lari va ularning spektri o‘rganilgan tuproq variantlarida o‘zaro yaqin, ya‘ni melioratsiyalangan variantlar bilan nazorat variantlari o‘rtasida farq juda kam, shu bois faqat 2-kesma uchun keltirildi.

O'rganilgan metamorfik qatlamli tuproqlarda 3 baryer, ya'ni bug'lanuvchi-oksizlanuvchi, karbanat-gipsli ikki yoqlama, sizot suvi chegarasidagi bug'lanuvchi baryerlar va ulardagi elementlar akkumulyatsiyasi quyidagicha ekanligi tadqiq qilindi. A bug'lanuvchi-oksizlanuvchi baryerlarda:

$$\mathbf{KK:} \frac{Sb}{7,80} > \frac{Cd}{6,69} > \frac{Hf}{3,80} > \frac{B}{3,74} > \frac{Cr}{3,25} > \frac{Mo}{2,15} > \frac{Ni}{1,98};$$

Sr, Ba, Zn, Mn, Co, As konsentratsiyalanmaydi.

CaS baryerlarda o'rganilgan elementlarning hammasi konsentratsiyalanadi, ya'ni $KK > 1$ tashkil qiladi. Ushbu baryerlarga ega bo'lgan tuproqlarda bug'doyning yuka navi o'stirilganda don tarkibi:

$$\frac{Mn}{48} > \frac{Zn}{25} > \frac{Cr}{24} > \frac{Ba}{9,7} > \frac{Cu}{6,0} > \frac{Sr}{4,6} > \frac{Ni}{2,2} > \frac{Mo}{0,33} > \frac{Co}{0,30} > \frac{As}{0,05} > \frac{Cd}{0,04}.$$

Somon+ildiz tizimda:

$$\frac{Mn}{63,0} > \frac{Zn}{40,0} > \frac{Cr}{26,0} > \frac{Ba}{10,7} > \frac{Cu}{5,5} > \frac{Sr}{4,6} > \frac{Ni}{2,6} > \frac{Mo}{0,41} > \frac{Co}{0,40} > \frac{Cd}{0,09} > \frac{As}{0,06};$$

larni tashkil qilgan holda o'rtacha biologik singdirish koeffitsiyenti (BSK) quyidagicha bo'ldi.

$$\mathbf{BSK:} \frac{Cr}{0,90} > \frac{Zn}{0,47} > \frac{Mo}{0,16} > \frac{Co}{0,10} > \frac{Mn}{0,08} > \frac{Cd}{0,08} > \frac{Ba}{0,04} > \frac{Ni}{0,02} > \frac{Sr}{0,02} > \frac{As}{0,01}.$$

Avalgi boblarda keltirilgan xossa va xususiyatlar ega bo'lgan sug'oriladigan metamorfik qatlamga ega bo'lgan, ko'l-allyuvial yotqiziqalar ustida cho'l mintaqada shakllangan tuproqlarning tadqiqotda qabul qilingan nazorat variantida Yuka navli bug'doydan 3 yillik o'rtacha 30,4 s/ga, metamorfik qatlamli faqat buzilgan ikkinchi variantda 41,3 s/ga, metamorfik qatlamli buzilgan va tadqiqot variantlari hududidan uning bo'laklari (осколкалари) chiqarib tashlangan variantda 60,3 s/ga don hosili olindi. Bundan tashqari, tadqiqot yillari davomida qumli dahalarda minerallashganlik darajasi o'rtacha bo'lgan suvlardan sug'orishlarga foydalanishi hisobiga ikki yil davomida 1600 m³/ga dan toza suv tejaldi, shuning hisobiga daryo suvi tozaligiga ham hissa qo'shildi.

XULOSALAR

1. Markaziy Farg'onada o'rganilgan gipsli, arzik-shoxli sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlaridan, ko'l-allyuvial yotqiziqalar ustida shakllangan sug'oriladigan metamorfik qatlamli o'tloqi saz tuproqlari keskin farq qiladi. Bu farq endogen pedolitoformatsiyali, ya'ni tuproq hosil bo'lish jarayonida shakllangan metamorfik qatlam bilan xarakterlanadi. Qatlamdagi fizik-kimyoviy biogeokimyoviy nurash va temir, alyuminiy, kremniylarning amorf gidroksidlari, oksidlari miqdorining ko'pligi bilan ifodalanadi.

2. Ushbu tuproqlarda uncha chuqur bo'lmagan qatlamlarda, ya'ni 0-20, 0-33 sm da metamorfik qatlamlar cho'l sharoitida o'tloqi saz tuproqlari shakllanish jarayonida shakllangan, gumus zaxirasi 0-20 sm qatlamda o'rtacha 0,8-1,1 % ni tashkil qiladi. Metamorfik qatlamni buzilganlik darajasiga ko'ra tuzlar zaxirasi o'zgaradi, ya'ni qatlam buzilgan va maydondan chiqarib tashlangan holatlarda tuzlar miqdori ustki qatlamlarda keskin kamayadi.

3. Metomorfik qatlamlarda kalsitogenez va sulfidogenez kabi jarayonlar hamda oksidogenez hisobiga boshqa me'yoriy, ya'ni haydov qatlamlariga nisbatan bir qator siklik elementlar, xususan, surma 3,1, bor 1,7, nikel 1,74 barobargacha ko'p miqdorda akkumulyatsiyalangan. Shu bilan birga, B, Mo, As va boshqa elementlarning konsentratsiya klarklari hatto onalik jinslarida ham anomal miqdorlarni tashkil qiladi va bu holat tuproq hosil bo'lish jarayonida o'simliklarga tuproq-iqlimiy sharoitlarga bog'liq ravishda bevosita o'z ta'sirini o'tkazgan.

4. Tuproq profilida qumoqli qatlamlarda radial pedogeokimyoviy baryerlarni mavjud emasligi, gumusli qatlamda esa gumus miqdorining kamligi tufayli tuproq-geokimyoviy strukturasi metomorfik qatlamga kimyoviy elementlarning akkumulyatsiyasida yuqori kontrastlik holati kuzatiladi. Makroelementlarning (Fe, Al, Si, Ca, Mg, K, Na) klark konsentratsiya va klark taqsimotlari metomorfik qatlamlarda haydov qatlamidan va onalik jinslar qatlamidagi miqdorlardan yuqori ekanligi, haydov va metomorfik qatlamlar uchun ushbu elementlar negizi onalik jinslar ekanligi, metomorfik qatlamlarda esa ularning akkumulyatsiyasi sodir bo'lishi metomorfik qatlamlar buzilgan taqdirda ushbu elementlarning KK, KT ko'rsatkichlari asta-sekinlik bilan haydov va boshqa qatlamlarga tenglashinib borishi kuzatiladi. Makroelementlar uchun yuqorida keltirilgan miqdoriy ko'rsatkichlar tuproq-geokimyoviy fon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

5. Ko'l-allyuvial yotqiziqlari ustida shakllangan o'tloqi saz tuproqlar o'ziga xos geokimyoviy tizim bo'lib, o'ziga yarasha individuallik xususiyatiga ko'ra boshqa tuproqlardan farq qiladi. Aniqlangan makro-mikroelementlarning siklik guruhi tabiiy jarayonlar ta'sirida genetik qatlamlariga tegishli ravishda vaqt davomida akkumulyatsiya va differensiyalangan. Tuproqdagi har qanday o'zgarish, ayniqsa, elementlarning sifat va miqdoriy o'zgarishi o'simlikda o'z aksini topadi. Ayni vaqtda bu o'zgarish o'simliklarga ham bog'liq bo'lib, yuka navli bug'doy hosildorligi va element tarkibida boshqa omillar bilan birgalikdagi metomorfik qatlamning ta'sirida namoyon bo'ladi. Nisbatan chuqurda, ya'ni 0-20-30 sm dan chuqurda joylashgan va buzilgan metomorfik qatlamlar yuka bug'doy navi tomonidan mikroelementlarning singdirishiga jiddiy ta'sir qilmaydi.

6. Ilk marotaba ko'l-allyuvial yotqiziqlar ustida shakllangan o'tloqi saz tuproqlar ustida yetishtirilgan yuka bug'doy navi tarkibidagi Na, Al, Mg, Si, K, Ca, Fe kabi makroelementlar va Cr, Mn, Co, Ni, Cu, Zn, As, Sr, Mo, Cd, Ba mikroelementlar don va somon+ildiz tizimlarida miqdoriy jihatdan aniqlandi. Shu bilan birga, mikroelementlardan Cr, Mn, Co, Ni, Cu, Zn, Sr, Mo, Cd, Ba miqdorlarini somon+ildizda donga nisbatan sezilarli darajada ko'pligi, mishyak elementi miqdorini esa don va somon+ildizda tengligi isbot qilindi.

7. Tuproq tarkibidagi rux elementining anomallik holati bo'yicha Yozyovon tuman tuproqlari ijobiy va salbiy anomaliya holatlari bilan ajralib turadi. Eskidan sug'oriladigan tuproqlarda, xususan, Xonobod dahasida ijobiy anomaliyani kuchayishiga sabab yerga g'o'za va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari uchun solinadigan fosforli va mahalliy o'g'itlar tarkibidagi Zn miqdorining va uning kuchsiz ishqoriy, neytral muhitda karbonatli, gipsli sharoitda bug'lanuvchi, karbonatli-gipsli ikki tomonlama baryerlarda akkumulyatsiyasini keltirish mumkin. Demak, o'g'it tarkibida Zn ni boshqarish va salbiy anomal holatlar uchun ushbu

mikroelementni tuproqqa hisoblangan holda o'simlik tarkibiga bog'liq ravishda solish tavsiya etiladi.

8. Qadimiy ko'l-allyuvial cho'kmalarda, cho'l sharoitida shakllangan o'tloqi saz tuproqlarda, har yilgi sho'r yuvish choralari va sug'orish ta'sirida metamorfik qatlamda degradatsiya jarayoni kuchsiz namoyon bo'ladi, bunga asosiy sabab bufer hisoblangan karbonatlarning ko'pligi buning ishtirokida mineral massaning parchalanishi kuchsiz sodir bo'lishi, shu bois temir va kremniy birikmalarining transformatsiyasi natijasida uning metamorfik qatlamda ko'payishi, natijada qatlamni sementlanishi ustki qatlamda kuchayib boradi.

9. Olingan natijalardan sug'oriladigan ko'l-allyuvial tuproqlarning morfologik, agrofizikaviy, agrokimyoviy pedogeokimyoviy, Yuka navli bug'doyning biogeokimyoviy xususiyatlari, tuproqlar unumdorligi ekin mahsuldorligini oshirishga qaratilgan atributiv ma'lumotlar bankini yaratishda, ushbu tuproqlarning tasnifini mukammallashtirishda, innovatsion, informatsion tizimda, ekologik sof mahsulotlar yaratishda, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va yetishtirishda, monitoring maqsadlarida, tuproq geokimyoviy xaritanomalar tuzishda metodik qo'llanma sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Bundan tashqari, universitetlarning tuproqshunoslik va agrokimyoviy, ekologiya va atrof-muhit yo'nalishlaridagi talabalar, magistrantlar va tayanch doktorantlarning izlanishlarida qo'llash uchun, "Tuproq biogeokimyosi" nomli o'quv-qo'llanmaga yaratilgan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

10. Tuproqlardagi tuzlarning mavsumiy akkumulyatsiyasi va rux mikroelementining anomaliya holatini ko'rsatuvchi raqamli yangi mazmundagi xaritanomalar tuman fermer xo'jaliklarida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Ko'l-allyuvial yotqiziqlar ustida shakllangan metamorfik qatlamli tuproqlardan samarali foydalanishda qatlamni buzish, dala maydonidan chiqarib tashlash hisobiga bug'doy hosildorligini oshirish natijasida 11-42 % rentabellikka erishish hamda qumli, qumoq mexanik tarkibli tuproqlarda minerallashtirilgan suvlardan foydalanish hisobiga 2 yil davomida 1600 m³/ga dan toza suvni tejalishi hisobiga daryo suvining ekologik tozaligiga ham hissa qo'shilishi mumkinligi tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РnD.03/30.12.2019. В. 05.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАМАЖОНОВ ИНОМЖОН НОРАЛИЕВИЧ

**ВЛИЯНИЕ АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ НА
БИОГЕОХИМИЧЕСКИЕ И МЕЛИОРАТИВНЫЕ СВОЙСТВА ПОЧВ С
МЕТАМОРФИЧЕСКИМИ ГОРИЗОНТАМИ И РАСТЕНИЙ**

03.00.13 - Почвоведение

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РnD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером и B2024.2.PhD/B1222

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу: (www.fdu.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

**Научный
руководитель:**

Юлдашев Гулом
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

**Официальные
оппоненты:**

Жаббаров Зафаржон Абдукаримович
доктор биологических наук, профессор

Каландаров Назимхон Назирович
доктор философии по биологическим наукам (PhD),
старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «26» 10 2024 г. в 10⁰⁰ часов на онлайн заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.05.03 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г.Фергана, улица Мураббийлар, 19). Тел (+99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz.

С данной диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета. Зарегистрирован за № 392. Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, 19. Тел (+99873) 244-44-94.

Автореферат диссертации разослан «09» 10 2024 года
(реестр протокола рассылки № 3 от 09.10 2024 г.)



В.Ю.Исаев
Председатель заседания Научного совета по
присуждению учёной степени, д.б.н., профессор

У.Б.Мирзаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
учёной степени, к.б.н., доцент

А.Т.Турдалиев
Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению учёной степени, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в условиях глобального изменения климата и опустынивания, роста антропогенной нагрузки на почвенный покров наблюдается снижение темпов роста орошаемых земель. По данным ООН, «за период с 2000 по 2019 года площадь земель под сельскохозяйственными культурами увеличилась на 4 процентов, то есть, на 63 млн га, антропогенной деградации подвергаются 34 процентов сельскохозяйственных земель». Из общей орошаемых земель подвержены риску деградации 161 млн/га или 48 процентов площади подверженных риску.¹ По данным ФАО, засоленные почвы занимают в мире около 25 % всей поверхности суши². Поэтому внедрение и поиск новых методов мониторинга и характеристики засоленных почв с метаморфическими горизонтами являются актуальными задачами.

В мире проводятся широкомасштабные исследования по ряду приоритетных направлений по изучению современного состояния засоленных почв с арзык-шоховыми горизонтами и их изменения под влиянием земледелия. Разрабатываются специальные ресурсосберегающие технологии по получению высокого урожая пшеницы и других сельскохозяйственных культур, уделяется особое внимание на расширение мониторинговых работ и агрохимического обслуживания в повышении плодородия почв с учетом генезиса и биогеохимических свойств, а также экономии и ресурсосберегающей технологии в производства сельскохозяйственных продуктов.

В Узбекистане в пустынной зоне определению физико-химических, эколого-мелиоративных свойств геохимическое состояние и предотвращении процессов эрозии, дегумификации, а также повышению плодородия засоленных почв с арзык-шоховыми, гипсовыми горизонтами и их охране, рациональному использованию уделяется особое внимание и достигнуты определенных успехов. В стратегии развития Республики Узбекистан на 2020-2030 годах определены задачи по росту урожайности сельскохозяйственных культур и повышению плодородия почв, улучшению мелиоративного состояния орошаемых земель, расширению производства экологически чистых продуктов, разумному использованию земельных ресурсов исходя из этих задач определены мелиоративных, биогеохимических, агрохимических свойств орошаемых почв сформировавшихся на озерно-аллювиальных равнин с метаморфическими горизонтами Центральной Фергане, анализ в них изменений, определение деградационных процессов, определение степени плодородия почв, посев и выращивания пшеницы получение высокого урожая, экономия поливной, сохранения речной воды от загрязнения приобретают важное научно-практическое значения.

¹Сводный доклад ООН 2021 г

²<https://unccleran.org/wp-content/uploads/library/cb7654ru.pdf>

Указ Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года № УП-5863 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» от 17 июня 2019 года. реализация задач, определенных в Постановлении № УП -5742³ «О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве» и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью. Данное диссертационное исследование служит в определенной степени выполнению задач, предусмотренных и в других нормативно-правовых документах.

